IQTISODIY SUD ISH YURITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ELEKTRON DALILLARNING PROTSESSUAL AHAMIYATI

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistranti **Sevara Shopo'latova**

imrconf.com

Tezis

Axborot texnologiyalari va elektron tizimning rivojlanishi sud tizimiga yangi protsessual mexanizmlarni olib kirdi. Qator raqamli elementlarning joriy etilishi natijasida elektron murojaat, masofaviy ishtirok, elektron hujjat almashinuvi hamda elektron dalillar institutlari shakllandi. Bu holat esa protsessual qonunchilikning transformatsiyasiga ham olib kelmoqda. Masalaga iqtisodiy sudlar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy nizolar tezkorlikni talab qilishi, dalillarning asosan elektron ko'rinishga egaligi va tijorat munosabatlarining tobora raqamlashtirilib borayotganligi sud tizimining ham raqamlashtirish sharoitiga javob berishini talab qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida sud tizimini raqamlashtirish jarayonining dastlabki strategik asoslari tom ma'noda 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni[1] bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi asosida boshlangan edi. Ushbu farmonning 2.3-bandida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish ustovor vazifa sifatida belgilangan edi.

Qolaversa, mazkur Farmonda belgilab qo'yilgan "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish" bandini sud tizimini raqamlashtirish bosqichiga qo'yilgan tamal toshi va ilk konseptual asoslardan biri deyish mumkin. Ushbu Farmondan keyin, tizimda sudyalar

[1] https://lex.uz/docs/-3107036#-3109146

o‘rtasida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash, sudlarda o‘z vaqtida elektron tarzda axborot almashuvini ta’minlovchi korporativ aloqa, tizimga qator zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarini kiritish kabi mexanizmlarni joriy etish jadallasha boshladi. Sud qarorlarining axborot-huquqiy elektron bazasi faol yuritilib, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan barcha sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilindi.

Ushbu Harakatlar strategiyasi asosan “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish va davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish masalalariga urg‘u bergan bo‘lsada, axborot texnologiyalarini davlat boshqaruviga keng tatbiq etish vazifalarini belgilangan. Ushbu qoidalar iqtisodiy sud ish yurituvini to‘liq raqamlashtirishning bevosita protsessual mexanizmlarini belgilamagan bo‘lsada, sud tizimida elektron texnologiyalarni joriy etish siyosatining boshlanish nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud tizimini raqamlashtirish jarayonining keyingi bosqichi Prezidentning 2017-yil 30-avgustdagi PQ–3250-son qarori[2] bilan bog‘liqdir. Mazkur qaror sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan bo‘lib, unda sud ish yurituvini avtomatlashtirish, sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda elektron xizmatlarni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur qarorning muhim jihati shundaki, unda sud tizimini raqamlashtirish umumiy deklarativ maqsad sifatida emas, balki aniq amaliy mexanizmlar orqali ifodalangan. Buni yuqoridagi Harakatlar strategiyasining amaliy ifodasi deyish ham mumkin. Xususan, joriy etilgan qator raqamli elementlar natijasida iqtisodiy sud ish yurituvida elektron shakldagi murojaatlarning kengayishi tadbirkorlik subyektlari uchun sudga murojaat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada soddalashtirdi.

[2] https://lex.uz/docs/3327998

imrconf.com

Bu Qaror sud tizimini raqamlashtirishning ikkinchi bosqichini boshlab berdi, ya'ni unda qator elektron elementlar joriy etildi. Ammo hali yagona integratsiyalashgan raqamli sud platformasi hali shakllanmagan edi. Shunday bo'lsada, bu Qaror iqtisodiy sud ish yurituvida elektron texnologiyalarni amaliy jihatdan qo'llashning dastlabki institutsional bosqichini boshlab berdi.

Prezidentimizning 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-sonli qarori[3] sudlar faoliyatiga "Elektron sud" axborot tizimini keng tadbiq etish hamda sud ish yurituvini bosqichma-bosqich raqamlashtirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo'ldi. Ushbu qarorda elektron hujjat almashinuvi, sud xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazish, sud majlislarida masofaviy ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va sud tizimining axborot infratuzilmasini rivojlantirish kabi yo'nalishlar belgilangan.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur qarorda raqamlashtirishning ko'plab yo'nalishlari umumiy va deklarativ shaklda ifodalangan bo'lib, ba'zi protsessual mexanizmlarning amaliy ishlash tartibi yetarli darajada ochib berilmagan. Jumladan, iqtisodiy sud ish yurituvida elektron tizimlarning o'zaro integratsiyasi, elektron dalillar bilan ishlash mexanizmi hamda to'liq raqamli ish yuritish modeli bo'yicha aniq protsessual yechimlar nazarda tutilmagan.

Sud tizimini raqamlashtirishga qaratilgan Prezidentimizning 2023-yil 16-yanvardagi Farmoni[4] ushbu jarayonning yangi bosqichiga o'tish uchun muhim siyosiy signal bo'ldi. Ushbu Farmonda ilk bor sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, "Raqamli sud" konsepsiyasini ishlab chiqish hamda sud tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari alohida qayd etilgan. Shu sababli, bu hujjatni O'zbekiston sud tizimida raqamlashtirishning oddiy elektronlashtirish bosqichidan texnologik transformatsiya bosqichiga o'tishga urinish sifatida baholashimiz mumkin.

[3] https://lex.uz/docs/4979896
[4] https://lex.uz/docs/-6358976

imrconf.com

Biroq, ushbu Farmon ham iqtisodiy sud ish yurituvida sun'iy intellekt texnologiyalarining aynan qaysi protsessual harakatlarga tadbiq etilishi, uning vakolat chegarasi va protsessual kafolatlari hamda javobgarlik masalalarini yetarli darajada aniq belgilab bermagan. Buni shunday izohlash mumkinki, hujjatda texnologik ambitsiya mavjud bo'lsada, uning protsessual-huquqiy mexanizmlari hali shakllanmagan edi. Buning natijasida esa "Raqamli sud" konsepsiyasi ko'proq strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lib, amaliy va to'liq integratsiyalashgan model darajasiga yetmaganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirish evolyutsiyasida "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident Farmoni[5] yangi davrni boshlab berdi. Agar avvalgi normativ-huquqiy hujjatlar asosan elektronlashtirish va texnik modernizatsiyaga qaratilgan bo'lsa, bu Farmonda sud faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, raqamli servislarni avtomatlashtirish hamda fuqarolar bilan raqamli interaktiv aloqani kuchaytirish masalalari ilgari surilganligi bilan ajralib turadi.

Bir so'z bilan aytganda, Farmon sud tizimini oddiy elektron platformalar orqali emas, balki "raqamli ekotizim" asosida rivojlantirishga qaratilgandek. Xususan, Farmondan so'ng sud tizimi bilan bog'liq ayrim xizmatlarda sun'iy intellekt elementlari qo'llanila boshandi. Masalan, foydalanuvchilarning huquqiy murojaatlariga cabinet.sud.uz saytida avtomatlashtirilgan tarzda javob beruvchi "ai maslahatchi", sud xarajatlarini taxminiy hisoblash tizimi hamda da'vo arizalarini elektron shaklda topshirishda davlat boji va pochta xarajatlarini avtomatik hisoblash va elektron to'lash imkoniyatlari joriy etildi. Bu esa iqtisodiy sud ish yurituvida protsessual qulaylik va tezkorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

[5] https://lex.uz/docs/7696567

imrconf.com